



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

18-NOYABR O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG'I QABUL QILINGAN KUN



Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni

O'ZBEKISTON DAVLATI

*O'zbekiston bayrog'i ko'tarildi chinakam,
Ushbu kunni ayting-chi, qay birimiz kutmadik.
Zarur bo'lgan chog'da goh dor tagida turib ham,
Qay birimiz tarixning sinovidan o'tmadik.*

*Dong'il safarga chiqdi endi hur O'zbekiston,
Kingadir oyoqosti, kimga u osmon bo'ldi.
Shukrkim, o'z-o'zini tanidi keksa jahon,
Ya'ni o'zbek davlatin jumlai jahon bildi.*

*Ne-ne kamsituvlarni ko'rgan shu boshim bilan
Ona xalqim, qoshingda tizza bukib turibman.
O'zbekcha gapirganda, bir chuqum oshim bilan
Sadaqai baxting deb borim to'kib turibman.*

*Garchi doim ungandir gulchechaklar bog'imda,
Temur va Navoiyni eslaymiz takror-takror.
Men-ku uzoq yasharman, lekin ketar chog'imda
Tepamda egilajak o'z tug'im – bayrog'im bor!*

*Nasib etmish bu kunlar, taralsin yangroq unlar,
Do'stlar bilan yonma-yon qutlaylik bu ayyomni.
Iloyo boshimizga kelmasin qaro kunlar,
O'zbekim, deb ko'taring, do'stlarim, oltin jomni.*

1992 -yil 4 -mart.



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimariyam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Bir g'azal sharhi

Manzar Abdulxayr. Fido jonimni aylab.....3

Tadqiqot

Okila Turakulova, Hamid Ergashev. Shoir shaxsi va ijodiga xos samimiyat 6

Madina Daliyeva. Tilshunoslikda termin tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari..... 8

Maxsuda Karimova. Milliy folkloristikamizning fidoiy vakili..... 11

Rushana Nabiyeva. Yangi o'zlashayotgan taom nomlari xususida 13

Pulat Fozilov. Ingliz va o'zbek tillari sistemasida fiziologik holat fe'llarining o'rni..... 16

Sevara Yoqubova. Anonim xatlarda unli harflar imlosining shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi 19

Manzura Shamsiyeva. Badiiy matnda peyzaj birliklari: tadqiqotning zamonaviy yo'nalishlari va istiqbollari..... 22

Nilufar Toshpo'latova. Emotsional-ekspressiv munosabat ifoda etuvchi frazemalar tahlili..... 24

Tursunoy Yandashova. Go'zallik konseptining nazariy-metodologik asoslari..... 28

Dilfuza Shomalikova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari 31

Dilfuza Kamoljonova. Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarning mutolaa kompetensiyasini rivojlantirish..... 33

Xikmat Xikmatov. Junaydillo Hoziqning lirik she'rlarining g'oyaviy mazmuni 34

Gulruh Ne'matova. "Правда востока" gazetasi va "Uzbekistan.travel.com" saytidagi materiallarning tili, uslubi, janrlari.... 38

Sayyora Kurolova. Qolip konstruksiyalarining murakkab gaplarda qo'llanilish mezonlari..... 40

Nuriddin Dosanov. O'zbek tilida izohlovchining o'rni..... 42

Zilola Sayitqanova. Oilaviy munosabatlarning o'zbek va ingliz tilidagi mikrokonseptlari 44

Shahnoza Rasulova. Hofiz va shoirning adabiy hamkorligi..... 46

Dilrabo Qodirova. Konchilik terminologiyasi tizimida o'zlashtirilgan terminlarning lingvistik va ekstralingvistik jihatlarini 49

Manzura Pirnazarova. Omon Matjon ijodi Suvon Meli talqinida..... 51

Usenova Venera. Ingliz ertak matnlarida mifologemalarning gavdalanishi 54

Nargis Kudratxodjayeva. Eng kichik ma'no birliklari haqida 56

Omadjon Azamov. Zoofragmalarning leksik-grammatik tahlili..... 58

Kamola Haydarova. O'zbek, rus va ingliz tillarida jiyda leksemasining lingvokulturologik xususiyatlari..... 60

Gulnoza Shodiyeva. Training as a method of teaching intercultural competence..... 62



boshlang'ich ta'limda badiiy adabiyotga ham alohida e'tibor qaratiladi. Maktablarida boshlang'ich sinflarda ustoz kichikintoylarga bitta badiiy kitobni (yilda bir marta) tavsiya qiladi. Ota-onalar do'konga borib o'sha kitobni sotib olishar ekan. So'ngra hamma bolalar kitobni uyida o'qib, sinfda keng muhokama qilishar ekan. Kitob nima haqida, u qaysi tomondan yoqdi yoki aksincha nega yoqmadi?... Bu metod orqali bolalar kichikligidan kitob mutolaasiga o'rgatib boriladi.

O'zbek maktablarida ham sinfdan tashqari o'qish uchun dars soatlari ajratiladi. O'quvchilar darslikdan tashqari matnlarni o'qib, uni dars mashg'ulotlarida tahlil qiladilar. Shuningdek, ta'til vaqtida ham sinfdan tashqari o'qish uchun badiiy adabiyotlar tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.09.2017 yildagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-3338600#-3338639>
2. "Bolalar o'rtasida kitobxonlik muammolari" Sabablar va takliflar.
3. Kaykovus "Qobusnoma", Yangi asr –T., 2019. 224 b.
4. <http://www.chidlitassn.org>

Xikmat XIKMATOV,
ChDPU o'qituvchisi

JUNAYDULLO HOZIQLING LIRIK SHE'RLARINING G'OYAVIY MAZMUNI

Annotatsiya: XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida o'zbek va tojik adabiyotining mumtoz namoyandasi, zullisonayn shoir Junaydullo Hoziqning she'riyat dunyosida quyosh kabi porlab turgani uning lirik g'azallarida o'z aksini topdi. Avvalida, Hoziqning yashab turgan hayoti va ayanchli taqdiri tufayli zamondoshlari qalbidan joy olgan bo'lsa, ikkinchidan mazmuni baland va sabku uslubidagi o'ziga xos she'riyati muxlislarini hali hamon o'ziga tortib kelmoqda.

Kalit so'zlar: *tabaqa, nizom, timsol, hijrat, muttasil, komil, uslub.*

Annotation: at the end of the 18th century and the first half of the 19th century, the famous representative of Uzbek and Tajik literature, the famous poet Junaidullo Hazik, who shone like the sun in the world of poetry, was reflected in his lyrical ghazals. At first, due to the life and sad fate of Haziq, his contemporaries took a place in the hearts of his contemporaries.

Key words: *class, statute, symbol, emigration, continuous, perfect, style.*

Аннотация: в конце XVIII и первой половине XIX века в его лирических газелях отразился известный представитель узбекской и таджикской литературы, знаменитый поэт Джунайдулло Хазик, сиявший, как солнце, в мире поэзии. Поначалу благодаря жизни и печальной судьбе Хазика его современники заняли место в сердцах современников.

Ключевые слова: *сорт, статут, символ, эмиграция, непрерывный, идеальный, стиль.*

Hoziq ikki misra she'ri uchun Amir Nasrullo tomonidan ayovsiz jazolangani, ya'ni kallasi tanasidan judo qilingani, adabiy-tarixiy manbalarda keltirilgan va bu voqeadan ko'pchilik xabardor. Uning Buxoro Amirligi xoni – Amir Nasrullo tomonidan tojik tilida aytgan bayti kelajakda uning o'limiga sabab bo'lgan:

Buridi bar qadi xud az malomat,

Libose to ba domoni qiyomat.

(Mazmuni: o'zingning tanangga malomatdan shundayin kiyim kesdingkim, uni qiyomatgacha kiyishga majbursan.)

Hoziq she'rlarining mazmuni o'zidan oldingi she'rlar singari rang-barangdir. Uning turkum she'rlarida shoir timsoli hayotning beqaror oshig'i, go'zal mahbubalarga oshiq, tabiatning betakror manzaralariga qoyil qolgan holda namoyon bo'ladi. Shoirning ayrim she'rlarida lirik qahramon o'zining o'tgan rohatli va halovatli kunlarini tasvirlaydi, baxt, sharobdan qoniqish va boshqa quvonchlarni dard va qayg'u bilan eslaydi va uni noqulay vaziyatga olib kelgan zamonning burilishlarini yodga soladi va shikoyat qiladi:

Yodi ayyome, ki pur az may sabo'e doshte,

Shab hama shab bar sari g'am hoyu hue doshtem.

**Shab nihon z-ag'yormovu yor dar bazmi visol,
Mo ham az imoi abry' guftugo'e doshtem.
Gardishi davron guli moro chunin pajmurda soxt,
Varna dar inbog' mo ham rangu bo'e doshtem.**

(Mazmuni: sog'arimni maydan limmo-lim kunlarimni, kecha-yu kunduz g'amdan yiroqligimni doimiy eslab turaman, visol bazmida biz dushmandan pinhona, yor bilan imo-ishoralar bilan dardlashar edik, ming afsuslarkim, dunyoning charxi biz kabi oshiq-bechorani murod gulimizni so'ldirib qo'ydi, bo'lmasa bizni ham bu dunyoda rang-u ro'yimiz, atr-u hidimiz bor edi.)

Hoziqni oshiq odamning hayotiga xavf soladigan hijrat, o'zgalarning behisob yomon ishlari, zamonga munosib bo'lmagan odamlarning ongsizligi va pastkashligi qiynaydi. Shoir o'z zamonasining nodon odamlari qilmishlarini qoralar ekan, ular ishq oldida o't-o'lanni farqini bilmaydigan hayvonlardek ekanini qayd etadi:

**Hoziq mago', ba bexiradon rozi ishqro,
Az anbaru abir kashad govu xar chi haz!**

(Mazmuni: Hoziq, ishq sirini aytmagin nodon kishilarga, eshak bilan sigir atir-anbardan, aytgin ne nasiba olur.)

Shoirning lirik qahramoni tinimsiz yordam berishga intiladi, lekin ko'p to'siqlar tufayli muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Shuning uchun shoirning turkum she'rlarida lirik qahramon obrazi dard va iztirobdan aziyat chekayotgan odamga, shaxsga o'xshaydi, qayg'u yuki ostida namoyon bo'ladi:

**Maro chun bishkufad xotir, ki hamchun
g'unchavu lola,**

Dilam xun ast tu bar tu, qigar dog' ast to bar to.

**Dar in ayyom har kas komi ayshe mekashad
chun gul,**

Manu dog'i dilu xuni qigar chun lolai xumro.

(Mazmuni: agar mening xotirim g'uncha-yu lola kabi unib-o'sishga shay bo'ladigan bo'lsa, qalbim bilan jigarim to'la-to'kis g'amga yuzlanadi, bu ayyomda hamma gul kabi aysh-u komda yashasada, biroq mening dilimni dog'lar, jigarimni qonlar donayi xurmo kabi o'rab oladi.)

Hoziq lirikasida ba'zan davrning ijtimoiy-siyosiy masalalari ham o'z ifodasini topadi. Shoirning qiyofasi ma'naviy kamolotga yetgan sari uning she'rlarida zamonning illatlari, musibatlari shunchalik ko'p tanqid qilinardi. Uni o'sha davrda ziyoli, donishmand, fazl-u kamol ahlini xor-u zalillikda yashagani tashvishga solar edi. Hoziq sinchkovlik bilan kishilar hayotini kuzatar edi. Ilm ahli doimiy azob-uqubatda, g'am-u tashvishda yashagani, muttasil iztirob chekib, kambag'allarcha umr ko'rganini ko'rib, aksincha, fazl-u kamoldan bahra topmagan, ilmsiz kishilarni hurmat-ehtiromda ekanliklarini o'z she'rlarida ifoda etadi. Shu sababli shoirning bu nohaq tuzumga e'tirozlari ko'proq bo'lgan. Shuning uchun muhitning pastkash sifatleri

dastidan dod-u fig'onga kelgan:

**Ku adofahme, ki bo obr'y kunam kori zabon,
To ba kay bo siflatab'on rishchunbon'y kunam.**

(Mazmuni: qani, o'sha hamma narsani to'lagicha tushunadigan kishi, men qachongacha bu siflalariga nasihat qilaman.)

Hoziq she'rlarining yana bir o'rnida bu adashgan va nopok toifani "tug'magan sigirda sut bo'lmaydi" kabi ifoda bilan qisir buzovga o'xshatib, shunday degan:

**Azon kase, ki rasidast nav ba mansabu davlat,
Tama' mador,ki govi nazoda shir nadorad.**

(Mazmuni: yaqindagina mansab va davlatga erishgan kishidan, hech narsani tama' qilmanglar, chunki tug'magan sigirda sut bo'lmagani kabi ulardan ham hech foyda ololmaysiz.)

Hoziq qalbida xalq va yurt ahvolini qashshoqlik darajasiga olib chiqqan davlat va hukumat amaldorlariga nisbatan nafrat yonadi. Shoir ta'biricha, "o'rgimchak to'ri" hech qachon gavharning og'irini ko'tarmaganidek, bu siymolar ham xalq va mamlakatni boshqarishga qodir emaslar:

**Xalqi olamro na har dun dast ba sar mekashad,
In qadah azdavri gardun mehri xovar mekashad.
Bori uzvi qohro har sifla natvonad kashid,
Heq tori ankabute iqdi gavhar mekashad?!**

(Mazmuni: har kim ham olam xalqini boshini silay olmaydi, bu amalni xovar mehri bajarishi mumkin, mansab yukini ham siflalar torta olmaydi, yokim gavhar yukini o'rgimchak tortganini ko'rganmisiz.)

Mavqega, dunyoga hirs berish bu toifani shunday darajaga yetkazdiki, ular har qanday past va iflos ishdan qaytmaydi, hatto onasining oq sutidan ota qonini olishga ham tayyorlar deydi. Ular mansab va davlat uchun o'z yaqin kishilarining qonini sug'urishdan ham parhez qilmaydilar deb quyidagicha ifodalaydi:

**Baski masti bodai hirsand abnoi zamon,
Tab'ashon xuni padar az shiri modar mekashad.**

(Mazmuni: zamon farzandlari hasodat hirsidan mast bo'lib olganlar, ularning tab'i ona sutidan otaning qonini tortadi.)

Shoir bu toifaning, ya'ni mansab va zulm ahlining soxta hayosiga aslo aldanmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Zulm ahli tabiatan chayon bo'lib, ularning tavozesi chayonning harakatiga o'xshab ketadi, zerokim chayon zahar sochishdan oldinroq nishini bukadi:

**Qasdi zolim az tavozy' nest quz tamhidi zulm ,
Meshavad xam neshi aqrab zahr chun
barmekashad.**

(Mazmuni: zolimning tavozi' qilishdan maqsadi zulmdan bo'lak hech narsa emas, chayonning ham zahar sochishdan oldin nishi bukiladi.)

Adib insonparvar shoir sifatida zolimlar qo'li mangu kalta bo'lishini, xalq zolimning yuzini hech qachon ko'rmasligini istardi. Biroq bu kabi xohish-istaklar shoir davrida uning ideal orzusi va quruq umidi edi, xolos! Shunga qaramay, zulm-u istibdod va zolimlar

amaliyotining oldini olishga bor kuchi bilan chiqishlar qilar edi. Hatto u o'z davrining amiri – Amir Nasrullohga nasihatlar berib, uni to'g'ri yo'ldan borishga undagan. Amir Nasrulloh lashkari "kambag'allarning molini talon-taroj qilgani, begunohlarning nolasini yer-u osmonlarga ko'targanini" o'z ko'zi bilan ko'rgan Hoziq undan qattiq g'azablanib, qasida yozgan edi. Hatto ushbu baytlarini Amirning qahridan qo'rqmasdan uning huzuriga yetkazgan. Quyidagi baytlar shoir she'ridan olingan:

**Bahri on podshoh kardxudo,
Qi nizomi qahon buvad barpo.
Ya'ne kas moli digare naxyrad,
Sari mazlum zolime naburad.**

(Mazmuni: Xudoyi ta'olo shuning uchun seni podshoh qildi, toki jahon nizomini barpo etsang, ya'niki hech kishi bironing mulkini o'zlashtirmasligi lozim, hech bir zolim mazlum kishining boshini kesishga haqli emasdir.)

Ushbu pandnomada Hoziq amirga, podshoh o'z mavjudligining sababi va maqsadini unutmasligini, mamlakatni aynan adolat, farovonlik, tartib va nizom asosida himoya qilishi zarurligini ta'kidlagan.

Ijodkor o'zining lirik she'rlarida, xususan, yuqoridagi she'rida o'z davrida hukm surgan zulm va adolatsizlikni ko'rsatsada, undan chiqish yo'lini faqat adolatli, insofli, madaniyatli podshoh hukmronligidan izlagan. Hoziqning tarixiy cheklovi ham shunda. U o'sha davrda tabaqalashtirilgan sinflar hukmdorligi mohiyatini va aynan Amirning o'zi o'sha sinflar sirasiga kirganini o'sha davrdagi O'rta Osiyo sharoitida yaxshi tushunmagan.

Hoziq lirikasida o'sha davr jamiyatining illatlari achchiq kinoya orqali fosh etilgan. Shoir o'sha davrning boy va hukmron tabaqasining xunuk xatti-harakatlarini, qilmishlarini qoralagan. Bu holatga shoirning tilla haqida yozgan g'azali misol bo'la oladi. Uning fikri bo'yicha yashayotgan davrida inson qadri aql-u zakovat, ilm-u fazilat, insof-u diyonat bilan emas, balki boylik, mol-mulk va oltin miqdori bilan belgilanadi. Boylar, hokim va muftiylar tabaqasida aql, ilm, yuksak saviya, hukm qilish fazilati bo'lmasa-da, ularning obro' e'tibori baland edi. Biroq asl obro'-e'tiborli kishilar esa oltin-kumushga e'tibor qilmaganliklari uchun, bu toifaga hech kim ahamiyat bermas edilar. Hoziq bu adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlikni achchiq kinoya bilan o'zining tojik va ham o'zbek tilida yozgan baytlari bilan qoralaydi. Shoir bu achchiq haqiqatni zaharli kinoya bilan ifodalagan:

**Simu zar tahsil kun gar obr̄ mexohadat,
Obr̄e dar qahon kay behtar az simu zar ast?!**

(Mazmuni: agar obro' istasang, sim-u zar hosil qilgin, qachon obro'ning qimmati sim-u zarga teng bo'lgan?)

Haziq kinoya bilan tilla, kumush insonga yangi

kuch, yangi ruh bag'ishlaydi, hayotning eng murakkab qiyinchiliklarini yechishda aql va zukkolik nuriga aylanadi. Dono kishi katta gunohkor bo'lsa-da, mol-u sarvat ila "Allohning qalbini topa oladi" va uning kuchi bilan jannatga ham bora oladi, deydi:

**Nurbaxshi didahovu halli mushkilhost zar,
Quvvati din ham agar don̄, zi zarri ahmar hast.
Nest badtar d̄yaxe az bezariyu mufliṣ̄
Rost ḡȳyam zar kalidi bog'i Xuldu Kavsar ast.**

(Mazmuni: oltin ko'zlarga ziyo bag'ishlab, barcha mushkullarni hal etadi, shuni yaxshi bilginki, dinning ham quvvati oltindadir, agarda muflisi tillosiz bo'lsang, bundan-da do'zaxi badtar yo'qdir, rostini aytsam, oltin Kavsar bilan Bihishtning kalitidir.)

Bu g'azalida Hoziq shoirona kayfiyat va nishonga tekuvchi achchiq kinoya bilan boylar boylik orqali ham "Allohning ko'nglini qozona" olsalar, boshqa muammolar haqida gapirishning hojati yo'qligini ta'kidlaydi:

**Metavon bo zar xudoro ham zi xud xushnud
soxt**

**Zar xudoro chun xush oyad, pas chi harfi digar
ast?**

(Mazmuni: Xudoning ko'nglini oltin bilan xushnud etish mumkin bo'lsa, unda hech qanday gapni aytishga chora-iloj qolmagan.)

Hoziq o'zining donoligi tufayli o'z davrining podshohlari, amirlari va boylarining hurmatiga sazovor bo'lmasa-da, o'zining ma'naviy kamoloti bilan o'zini o'sha toifadan ulug' sanab, bundan faxrlanardi:

**Ba giru dori buzurḡ tu bosh xush ki dili man,
Giriftaast tamannoi doru gir nadorad.
Chi fayzi olami ma'n̄n̄ ba maxzani dili Hoziq,
Qavohirest, ki shohi falaksarir nadorad.**

(Mazmuni: dunyoning boyligidan sen xush bo'lg'in, meni ko'nglim undan qolgan, unga hech qanday moyilligi yo'q. Hoziq qalbining maxzani ma'naviy olamning fayzidir, u bir javohirdirkim, dunyoning taxtini olgan shohda ham yo'qdir.)

Shoir o'z davrining mag'rur amaldorlarini go'zal uzukdagi bitiklarga qiyoslaydi, ular qo'lda chiroyli ko'rinsa ham, aslida yuvgan sari nur-u ziyosi ketadi deb ta'kidlaydi:

**Xatost da'vii ozodiat zi sh̄yhrati qoh,
Kuqost maxlasi nome ki bar nigin aftad.**

(Mazmuni: mansab shuhratidan erkinlikdan da'vo qilganing xatodir, uzukka tushgan nomning xalos bo'lganini ko'rganmisan?)

Hoziq bu baytda shaxsiy erkinlikni hukmron tabaqaning shon-shuhratiga, mansabdagilarni esa mohirlikka qarama-qarshi qo'yib, o'z hayot yo'li bilan faxrlanadi.

Lirik she'rlarida ko'rish mumkin bo'lgan qiziq nuqtalardan biri shoirning so'zli nutq va yuksak she'r uchun harakat va kurashidadir. Shoir asl mazmunli va badiiy so'zni qadrlaydi, ma'nosi baland va toza

bayt-u g'azallarni pokiza tutadi. Uning fikricha "oliy badiiy nasrdan, gavhar – suv" va "a'lo she'r qadridan, sof oltin ham ziyosiz-u nursiz bo'ladi". So'z gavhar bo'lsa, yozilganidek, qadri ikki barobar ortadi. Shu ma'noda shoir quyidagilarni bayon etgan:

**Suxanro she'r baxshad zebi digar,
Shavad az nazm afzun qadri digar.
Agar xud she'rro husne nabudā,
Ba Hasson kay, nabī ehson nabudā.**

(Mazmuni: she'r so'zga o'zgacha oro bag'ishlaydi, nazmga solganda yangicha ma'no kasb etadi, agarda she'rda husn bo'lmaganda, Hassonga nabi ehson bo'lmas edi.)

Bir g'azalida (Menga tubo daraxti bilan kavsarning soyasi kerak emas. Menga qomati sarvi ravon, lablari asal kerak) sog'lom kayfiyat va yuksak ma'naviyat, ishtiyoqli yurak va hayajonli ehtirolarni oliy she'r belgilaridan deb biladi. Shoirning bu talabi yaxshi she'r yozish va komil shoir bo'lishning faqat bir tomonidir. Bundan tashqari, u shoirda hayotni bilish, borliqni sevish kabi har tomonlama chuqur va to'liq bilim bo'lishini ta'kidlaydi. Hamda madaniyat tarixi, falsafa va siyosat, adabiyot, o'tmishdagi yetuk notiqning boy adabiy tajribasini o'zlashtirishning barcha jabhalarini qamrab olishini aytib o'tadi. Shaxsan Hozirning o'zi ham o'zidan oldingilarning tajribasi va maktabidan badiiy uslub va ifoda mahoratini o'rgangan.

Hozirning tojik tilidagi lirik ash'orida Sa'diy, Jomiy, Hofiz, Qassob, Nozim, Vahshiy, Bedil, Zebunisolarlarning ham mazmun, ham g'oya, ham badiiy uslub jihatidan katta ta'siri bo'lgan bo'lsa, uning o'zbek tilidagi she'larida Fuzuliy va, ayniqsa, Alisher Navoiyning ta'siri beqiyosdir. Bunga Navoiyning g'azaliga yozgan muxammasi yaqqol misoldir:

**Boshima solmish ne savdolar muhabbat mehnati,
Bosh-oyog'im sham'dek yondurdi ul oy furqati,
O'lsam oson bo'lur erdi hajrning bu kulfati.
Jong'a chun dermen na erkin kuymag'ung kayfiyati,
Derki bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati...**

**... Hozir, oxir ko'z bu so'zni chin dedi, o'lguncha kuy,
Bir-birig'a har biri sen-sen dedi, o'lguncha kuy,
O'rtadin ishq ofati men-men dedi, o'lguncha kuy,
Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy,
Kim sanga ishq o'ti o'q ermish azalning qismati.**

Adabiyotimiz tarixida oddiy mehnatkash xalq yo'lida o'limdan qo'rqmay, jonini fido qilgan, bugun ham ijodkorlar ibratiga sazovor bo'lgan adiblar ko'p. Biroq Hozir yagona shoirkim, boshini amirning qilichiga qaratdi, lekin ruhan boshini past qilmadi.

Hozirning o'zbek va fors she'riyati to'plami Rossiya Al Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg filialida, "Yusuf va Zulayho" qo'lyozmasining 7 nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida, "Devoni g'azaliyot" nomli majmuasining 2 nusxasi Xo'jandda, Konibodom shahridan topilgan to'plami adabiyotshunos E.Shodiyevning qo'lida, hamda uning bir qancha she'rlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari va to'plamlarida saqlanmoqda.

Tojikiston va O'zbekiston adabiyotshunoslari Junaydullo Hozir haqida ko'p ilmiy maqola va risolalar yozganlar, ulardan eng muhimlari S.Ayniy, A.Mirzoyev, H.Mirzozoda, A.Qayumov va N.Ma'sumi bo'ladilar. Bu fikrlarning barchasi S.Amirqulovning "Junaydullo Hozir" va uning "Yusuf va Zulayho" dostoni risolasida jamlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qayumov A. Hozir. – T., 1957.
2. Irisov A, Nosirov A, Nizomiddinov I, O'rta osiyolik qirqolim. – T., 1961.
3. O'zbek adabiyoti tarixi [5 jildli], 4-j. – T., 1978;
4. Qayyumov P, Begali Qosimov. Tazkirai Qayyumiy [3jildli].
5. Sa'diyev S., Karimov U., Hodizoda R., Adabiyoti tojik, nashriyoti "Maorif", 1988.

Internet saytlari

1. www.ziyouz.uz
2. Oyina.uz